

TARIX DARSALARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kodirov Bokijon Sobirjonovich

Namangan viloyat Kosonsoy tuman 7-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarini tashkillashtirish va ta'lif jarayonida zamonaviy texnologiyalar qo'llab dars tashkillashning ahamiyati tahlil etilgan bo'lib, unda ko'rasmali qurollardan foydalanib dars samaradorligini oshirish ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tarix, dars, jarayon, ko'rasmali quollar, material, didaktika.

Tarix o'qitishning asosiy maqsadi, albatta o'tmish tarixni urganish va Vatanga sodiq jamiyat kishisini tarbiyalashdan iborat. Tarixni o'qitish deganda-tarixiy material vatanga munosib ruhda tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayon, yangi o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy ichki hamda o'quv harakatlari tashqi jarayoni tushuniladi.

Darsning ko'rasmali bo'lishi, uning o'quvchilardagi tayyor obrazlarga suyana bilishi, o'quv materialini bayon qilish vaqtida ko'rasmali qurollardan foydalanish va ko'rsatmali quollar vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini tezlashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy asoslarni voqe va hodisalarni aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi. Ko'rsatmali tasvirlar tarixiy fakt va hodisaarning tashqi ko'rinishigina emas, balki ularning ichqi mohiyatni ham ochib beradi. Tarix o'qitishda ko'rsatmalilikning ahamiyati tarixiy faktlarni, hodisalarni ko'rish organlari ishtirokida mushohada etish va ular haqida aniq tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi, murakkab tarixiy hodisalarni, tushunchalarni tushunib olishni ham yengillashtiradi, tarixni to'g'ri real tushunisha yordam beradi. Demak, tarixiy voqealar takrorlanmaydi. Shuning uchun ham tarixiy bilimning muhim manbai sifatida har xil ko'rsatmali qurollarni qabul qilamiz. Ular orqali tarixiy o'tmish gavdalantiriladi. Faktlar konkretlashtiriladi.

Masalan: o'rta asr hunarmandchilik ustaxonasi bilan ingliz manufakturasining kartinasini fabrika-zavod kartinalari bilan taqqoslash orqali ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini, uning qonuniyatlarini o'zlashtirishga bo'ladi. Ko'rsatmali o'qitish usul-nazorat, qabul qilish, esda saqlash, so'zlash malakalarini oshirishga yordam beradi.

Ko'rasmali o'quv qurollari tashqi belgilariga ko'ra bosma, ekranli, tovushli o'quv qurollariga bo'linadi. Lekin u ham tez-tez ishlataladi, ular tarixiy tasvirning mazmuni va xarakteriga ko'ra tasniflanadi, buning natijasida mavzu, rasm, shartli-grafik ko'rinish ajratib ko'satiladi. *Kartalar.* Siyosiy, tarixiy, geografik, iqtisodiy,

sinoptik xaritalar ma'lum (ular jahon sivilizatsiyalarining xronologik doirasini bir-biri bilan taqqlaslab ko'rsatadi). Ushbu kartalarning barchasi tarixni o'rganishda muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Tarixiy xaritalar geografik asosda yaratilgan va voqealar yoki davrlar tarixining qisqartirilgan umumlashtirilgan obrazli-belgili tasvirlari. Tarixiy xaritalar jo'g'rofiy xaritalardan farqli o'laroq, dinamik xarakterga ega bo'lib, ular jarayon va hodisalarning dinamikasini ochib beradi. Ular hududning qamrovi (dunyo, qit'a, davlatlar xaritalari), mazmuniga ko'ra (1. umumiyo ko'rinish - ma'lum bir davr voqealari aks ettirilgan), 2. umumlashtiruvchi - ma'lum joy va vaqt ichidagi muayyan hodisa va hodisalar), 3. tematik - hodisa va hodisalarni o'rganish mavzulari, masshtablar bo'yicha (katta, o'rta va kichik).

Ekran va ekran-tovush ko'rinishi orasida (*texnik ta'lim vositalari*) darslik va o'quv qo'llanmalari bilan birgalikda kino, film lentalari, audiodisklardan foydalanishni qayd etamiz. Slaydlar, shaffoflar, masalan, tarixning turli davrlarida yaratilgan me'moriy yodgorliklarni tahlil qilish imkonini beradi.

Masalan: voqealikni kartina orqali bayon qilishni ko'rib chiqamiz." Rossiyadagi birinchi dehqonlar urushi" degan mavzuda qo'zg'olonning olib borilishini ochib berishda rassom E.E.Lissnerning "Moskva yonida Bolotnikovning dehqonlar armiyasi jangining boshlanishi" kartinasidan foydalanimiz. Uni qo'yidagi faktlar bilan hikoya qilish mumkin: "Kartinada Nijnie Kotli selosida Moskva yonidagi hal qiluvchi jang ifodalangan. U 1606 y. 2- dekabrda bo'lib o'tdi. O'ng tomonda otda turgan İvan Bolotnikovning o'zi. U Nijnie Kotlidagi o'rashgan dushman tomoniga otlanayotgan otliq kazak bo'linmalarini qutlamoqda. Piyodalar ham tez yurmoqda. Qo'zg'olonchilarining har xil kiyimlari, qurollari aniq ko'rsatilgan. Dehqonlar qo'llariga tushgan narsalari: bolta, pichoq va hokazolar bilan qurollangan. Ularning ko'pchiligin o'zları yasashgan yoki bo'lmasam Shuyskiy askarlari bilan bo'lgan jangda tortib olgan. Mana kartinada 3 ot bilan tortib dushmanidan olingan pushkani sudrab borayotir. Qo'riqchilarining birqanchasi tun, ayrimlari yarim tun, ayrimlari esa mis shlem ham kiyishgan, oyoq kiyimlari ham har xil. Bitta kazak orqalariga qo'llari bog'langan qo'lga tushgan ikkita dushmani boshqaruvchiga olib borayotir. Bu hikoya orqali o'quvchilar İvan Bolotnikov qo'zg'olonining mag'lubiyatga uchrash sabablarini ham anglaydi. Masalan: qatnashganlarning ijtimoiy tarkibining har xilligi, mos darajada qurollanish [1].

Tarix o'qitishda ijtimoiy guruhlarning, tarixiy shaxslarning tipik obrazlarini shakllantirishda portretlar katta o'rinn tutadi. Ular bilan ishlashda tavsifnomalar, tarixiy shaxs hayoti va xizmatlari haqida baen etiladi. Masalan: ("Jahon tarixi 7 sinf). Markaziy

hokimiyatning kuchayishi" (Fr,) degan mavzuda XVIII asrda Philipp da Shampen chizgan Kardinal Rishelening portretini foydalanish mumkin. U 1624-1642 yillarda Frantsiyani idora qilib turgan Kardinal unvonini olgan Rishele Frantsiyada kotolik cherkoviga boshchilik qilar va shu bilan bir vaqtida qirolning birinchi vaziri edi.

Xulosa qilib aytganimida, amalga oshirilgan ishlar natijasida tarix darslarida ko'rgazmalilikning o'rni beqiyos, degan xulosaga kelish mumkin. Tarixni ko'rgazmali o'qitishda obrazli vositalar asosiy o'rinni egallaydi. Tarix darslarida rasm va multfilmlardan foydalanish o'quvchilarning xotirasini, tafakkurini, tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulayev E.N. Tarixni o'qitishda ko'rinish va muammoli yondashuv, Maktabda tarix o'qitish, 2014 yil.
2. G'affarov Ya.X, G'affarova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996
3. Sadiev A.Maktabda tarix o'qitish metodikasi.T.,1988